

## **KOREYS TILSHUNOSLIGIDA NEOLOGIZM TURLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Dilnavoz Xamidova**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy izlanuvchisi  
[dilnavozkhamidova23@gmail.com](mailto:dilnavozkhamidova23@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Qadim zamonlardan beri jamiyatning intellektual ongi yangi tajribalarning faoliyatga tatbiqi va axborot manbaining ortib borishi orqali rivojlandi. Ushbu o‘zgarishlarda e‘tibor qartadigan bir jihat, bu insoniyat tarixi davomida tillarning uzluksiz taraqqiy etishidir.*

*Kundalik hayotda foydalaniladigan tushunchalarning miqdori bizga meros ma‘lumotlar salmog‘ini orttirmoqda. Shu sabab so‘nggi yillarda sodir bo‘lgan voqea-hodisalar, yaratilgan narsa-predmetlarni ifodalash, ularga nom berish vazifasi lingvistika, leksikologiya, onomastika kabi fanlar oldida turgan dolzarb masaladir.*

*Ushbu maqola koreys tilida neologizatsiya masalasini, uning leksik qatlamida ko‘p sonli neologizmlar qanday yaralishi va jamiyat tomonidan qabul qilinishining asosiy sabablarini hamda ular qanday ma‘noni anglatishini o‘rganishga bag‘ishlanadi.*

***Kalit so‘zlar:** neologizm, neologizatsiya, slenglar, qisqartmalar, moda so‘zlar, yangi so‘zlar, akronim*

## **SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE TYPES OF NEOLOGISMS IN KOREAN LINGUISTICS**

**Dilnavoz Khamidova**

Researcher of Tashkent State University of Oriental Studies, Uzbekistan  
[dilnavozkhamidova23@gmail.com](mailto:dilnavozkhamidova23@gmail.com)

### **ABSTRACT**

*Since ancient times, the intellectual consciousness of society has developed through the application of new experiences and the increase of the source of information. One aspect of these changes is the continuous development of languages throughout human history.*

*The amount of concepts used in daily life is increasing the quantity of legacy information. For this reason, the task of expressing and naming the events and*

*objects that have occurred in recent years is an urgent issue facing such sciences as linguistics, lexicology, and onomastics.*

*This article analyzes the issue of neologization in the Korean language, the main reasons why a large number of neologisms are created in its lexical layer and accepted by society, and what they mean.*

**Keywords:** *neologism, neologization, slang, abbreviations, buzzwords, new words, acronym.*

## **СПЕЦИФИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ТИПОВ НЕОЛОГИЗМОВ КОРЕЙСКОГО ЯЗЫКОЗНАНИЯ**

**Дильнавоз Хамидова**

научный сотрудник Ташкентского государственного университета  
востоковедения, Узбекистан  
[dilnavozkhamidova23@gmail.com](mailto:dilnavozkhamidova23@gmail.com)

### **АННОТАЦИЯ**

*С древних времен развивалось за счет интеллектуального сознания общества, применения нового опыта и увеличения источника информации. Одним из аспектов этих изменений является непрерывное развитие языков на протяжении всей истории человечества.*

*Количество понятий, используемых в повседневной жизни, увеличивает нагрузку на информации, которые мы унаследуем. По этой причине цель по выражению и наименованию событий и предметов, произошедших в последние годы, является актуальной задачей, стоящей перед такими науками, как языкознание, лексикология, ономастика.*

*Данная статья посвящена изучению вопроса неологизации в корейском языке, основным причинам, по которым обществом в его лексическом слое создается и принимается большое количество неологизмов, и то, что они означают.*

**Ключевые слова:** *неологизм, неологизация, сленг, аббревиатуры, модные слова, новые слова, акроним.*

### **KIRISH**

Til jamiyatni aks ettiradi. Bu mulohaza, ayniqsa, lugʻatdagi yangi soʻzlarda yaqqol namoyon boʻladi. Bugungi kunda jamiyatdagi jadal oʻzgarishlar yangi soʻzlarni oʻzlashtirishga yoki muqobillarini yaratishga olib kelmoqda. Neologizmlar – bu, turli tillar tomonidan allaqachon qabul qilingan soʻzlar, iboralar, turgʻun

o‘xshatishlar yoki yangi o‘zlashgan ma‘nolar bo‘lib, ular odatda chet tilidan kirib keladi va boshqa tilga o‘zlashganda, ko‘pincha bu so‘zlarning yozilishi va talaffuzida o‘zgarishlar yuz beradi. Hozirgi kunda barcha tillar lug‘atlaridan biz ularni topishimiz mumkin [Bakhronova, Abdurakhmatova 2021]. Tabiiyki, lug‘atlar tarkibidagi neologizmlarning aksariyati ijtimoiy masalalar bilan bog‘liq holda kirib kelmoqda. Shuning uchun neologizmlarni ijtimoiy hodisalarning ko‘zgusi sifatida e‘tirof etish mumkin. Ularning katta qismi, asosan, bo‘sh vaqt, iqtisodiyot va internet terminologiyasidan iborat.

“Neologizm” atamasi XIX asrda fransuz tilidan (neologisme), u o‘z o‘rnida yunonchadan (neos logos) olingan bo‘lib, *yangi so‘z* ma‘nosini anglatadi. O.Axmanova bu terminga quyidagicha ta‘rif bergan: “Yangi (ilgari noma‘lum) ob‘ektni belgilash yoki yangi tushunchani ifodalash uchun yaratilgan (paydo bo‘lgan) so‘z yoki ibora” [Axmanova 1966].

Chet tilidan o‘zlashgan leksemalarni shartli ravishda: a) moslashmagan o‘zlashma so‘zlar (apparat, kompyuter); b) moslashgan o‘zlashma so‘zlar (xakker, gol (ing.: goal); c) ksenizmlarga (lord, tolibon, software) bo‘lib o‘rganadilar. [Xamidova 2021]

Aslini olganda, neologizmlar – bu butunlay yangi yoki ilgari mavjud bo‘lgan, ob‘ektlar yoki tushunchalarga yangi ma‘no beradigan so‘zlardir. Koreys tilidagi neologizmlar qatoriga koreys, ingliz va xitoy tillari lug‘aviy qatlamidagi so‘z bo‘g‘inlarini qo‘shish orqali yaratilgan so‘zlar, shuningdek, gaplarni qisqartirish yo‘li bilan hosil qilingan akronimlar kiradi. Nutqda keng qo‘llaniladigan, lekin lug‘atlarga kiritilmagan yangi so‘z va iboralar ham neologizmlar hisoblanadi. Bugungi kunda barcha sohalar bo‘yicha neologizmlarni tadqiqotlarda uchratish mumkin [Dadaboyev, Bakhronova 2021; Baxronova 2015]. Neologizmlarning yana bir guruhi kundalik og‘zaki va yozma tilimizda foydalaniladigan yangi moda so‘zlardir. “Slenglar” ya‘ni ayrim qisqartirilgan jargon so‘zlar ham koreys tilida neologizmlar sanaladi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Koreys tili lug‘aviy qatlamidagi neologizmlarning aksariyatini chetdan kirib kelgan so‘zlar, ayniqsa, ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlardagi bo‘g‘inlarning koreys tilidagi so‘z bo‘g‘inlari bilan qo‘shilishi natijasida paydo bo‘lgan yangi so‘zlar tashkil qiladi.

일코노미- [il-kho‘-no‘-mi] 일코노미 – (“일” koreys tilida bir soni, “코노미” ingliz tilidan “economy - iqtisod” so‘zining qisqartirib o‘zlashgan shakli) bir kishidan tashkil topgan uy xo‘jaligi yoki faqat bitta iste‘molchi uchun tuzilgan iqtisodiy

tizimni anglatadi. Koreya yoshlari orasida hayotiy qarashlar, xususan, nikohga nisbatan munosabat salbiy tomonga o'zgargani bois, u yerda 1 인 가구 [il-in-ka-gu-] ya'ni bir kishidan tashkil topgan oilalar soni ko'payib bormoqda. Koreys jamiyatida yuz berayotgan mana shunday holatlar koreys tilida mazkur neologizmning ommalashuviga sabab bo'ldi.

폰카족 – [po'n-kha-jo'k] – Ushbu so'z koreys tiliga ingliz tilidan o'zlashgan "phone" – 핸드폰 (telefon) so'zining oxirgi bo'g'ini, "camera" – 카메라 (kamera) so'zining birinchi bo'g'ini va koreys tilidagi 부족 (qabila, guruh) so'zining oxirgi bo'g'inlarini qo'shish orqali hosil qilingan. Bu mobil telefon apparatlariga o'rnatilgan kameralardan tez-tez va qiyinchiliklarsiz foydalanadigan odamni anglatadi. Masalan: 디지털카메라와 고화소 카메라 폰이 급속히 확산되면서 디카족, 폰카족들은 곳곳에 설치된 디지털 사진 인화 자판기로 직접 촬영한 다양한 사진들을 언제 어디서든 손쉽게 출력할 수 있게 됐다 *Tarjimasi:* Raqamli va yuqori aniqlikdagi kamerali telefonlarning tez tarqalishi bilan 폰카족 (ya'ni telefon kameralaridan uddaburronlik bilan foydalana oladigan kishilar) istalgan vaqtda istalgan joyda fotosuratlarini chop etish qurilmasi yordamida turli xil fotosuratlarini osongina ommalashtirishlari mumkin.

컴맹 [khom-meng] 컴맹 = 컴퓨터 (ingliz tilidan "computer") + 맹 (koreys tilida 문맹 – "盲" savodsizlik) kompyuterdan foydalana olmaydigan kishi ma'nosini anglatadi. Bu so'z "savodsiz" ma'nosida anglashilib, kompyuter haqida ma'lumotga ega bo'lmagan odamlarga tegishli hisoblanadi. Bu tushuncha 20-asrning oxiridagina odatiy holga aylangan, lekin tez tarqalgani va kundalik hayot zaruriyatiga aylangani uchun ancha mashhur bo'lib ketgan. Mazkur neologizm shunchaki kompyuterni boshqara olmaydigan odamlarni anglatmaydi, balki kompyuterdan noto'g'ri foydalanadigan va muammolar kelib chiqishiga sabab bo'ladigan kishilarga ham taalluqli hisoblanadi. 컴맹 mazmunida odamni kamsitish ifodasi mavjud. Masalan: 세종대왕은 문맹 없는 나라를 만드셨습니다. 세진컴퓨터랜드는 컴맹 없는 나라를 만들겠습니다. *Tarjimasi:* Qirol Sejong savodsiz bir o'lkani yaratdi. Sejin Computer Land mamlakatni ko'rlikdan (savodsizlikdan) xalos qutqarajak. (1990-yillaridagi "Sejin Computer Land" korporatsiyasi reklamasidan)

Shuningdek, yangi so'zlar qatorida butunlay ingliz so'zlarini qo'shish orqali hosil qilingan neologizmlarni ham uchratish mumkin. Masalan, koreys oshxonalarida tez-tez quloqqa chalinishi mumkin bo'lgan 아아 [A-A] = 아이스 (Ice) + 아메리카노 (Americano) so'zlarini qo'shish orqali hosil qilingan. Bugungi zamonaviy koreys

yoshlari koreys madaniyatiga xos bo'lgan “빨리, 빨리” hayot tarziga amal qilish maqsadida 아이스 아메리카노 o'rnida 아아 qisqartma so'zdan foydalanishni ma'qul ko'rishadi.

Misol: 아아는 뜨거운 물 대신 차가운 물을 에스프레소에 더해 만든다.

*Tarjimasi:* Muzli Americano espressoga issiq suv o'rniga sovuq suv qo'shib tayyorlanadi.

Xuddi shunday, 뜨아 [ Ты-А] = 뜨거운 (Issiq) + 아메리카노 (Americano) qisqartmasi ham bugungi koreys yoshlari orasida urf bo'lgan sleng so'zdir.

복세편살 – [po'k-se-pyon-sal] – koreys leksikologiyasida neologizmlar asosan 즐길말 [chur-im-mal] qisqartmalar shaklida uchraydi. Hatto, ayrim neologizmlar butun boshli gapni qisqartirish orqali yasalgani kuzatiladi. 복세편살 – koreys tilida 복잡한 세상을 편하게 살자! (Tarjimasi: Murakkab dunyoda betashvish yashaylik!) gapini qisqartirish orqali yasalgan shior neologizm hisoblanadi. Mazkur jumla jadal rivojlanayotgan koreys jamiyati yoshlari orasida juda ommalashgan. Ushbu jumlaning to'liq qo'llashning biroz murakkabligi va vaqt olgani sababli so'zlarning bosh bo'g'inlarini qo'shish orqali yasalgan qisqartmasi 복세편살 – [po'k-se-pyon-sal] kundalik hayotda faol ishlatilmoqda.

할말하않 – [hal-mar-ha-anh] – neologizmi ham 할 말은 많지만 하지 않겠다 (Aytadigan gap ko'p, ammo aytmayman) gapining qisqartmasi hisoblanadi. Mazkur neologizm tarjimasidan ko'rinib turibdiki, ushbu qisqartma aytishni xohlagan gaplari ko'p, lekin aytmadan chidab turish, suhbatdosh bilan suhbat uncha qovushmayotgan paytda endi suhbatni davom ettirmaslik maqsadida aytmoqchi bo'lgan gaplarni ichida saqlab turish holatlarini ifoda etish uchun qo'llaniladi.

안물안궁 – [an-mul-an-kung] – 안 물어 봤고 안 궁금해 (Tarjimasi: So'ramadim, qiziq emas!) gapining qisqartmasi. Ushbu sleng-neologizm so'zlovchining shikoyat yoki norozilik ruhidagi gaplarini eshitishni xohlamaganda ishlatiladi. 안물안궁 slengi bugungi kun yoshlari orasida boshqa odamning gaplariga e'tibor bermaslik, qiziqmaslik ma'nolarida ko'p qo'llanilmoqda. 안물안궁 bilan o'xshash ma'noda, sms xabarlarda ko'p qo'llaniladigan va biroz qo'pol ifodani beruvchi yana bir sleng bu 누물보 [nu-mul-bo'] bo'lib, 누구 물어보신 분? (Tarjimasi: Kim so'radi?) gapining qisqartirilgan shakli hisoblanadi. Mazkur neologizm ham so'zlovchining gaplariga e'tiborsizlikni bildirish maqsadida salbiy ma'noni ifodalaydi, va sms xabarlarda, asosan, ㄴ ㄹ ㅂ? shaklida qo'llaniladi. ㄴ ㄹ ㅂ? kabi slenglar neologizmning bir shakli sanaladi va ular tilshunoslikda *akronimlar*

(qisqartmalar) deya yuritiladi. Koreys tilida akronimlar juda ko‘plab uchraydi. Masalan, ㅇㅇ – 응응 (ha), ㄴㄴ – 노노 (yo‘q), ㅇㅋ – 오케이 (ok), ㄱ – 감사 (rahmat!), ㄹ – 몰라 (bilmayman), ㅇ? – 왜? (nimaga?), ㅇㄷ? – 어디? (qayerda?), ㄷㅋ – 축하 (tabriklayman!), ㄱㅈ – 괜찮아 (hammasi joyida) kabi akronimlar so‘zlarning bo‘g‘inlari yoki bosh harflaridan hosil qilingan.

Bundan tashqari, zamonaviy koreys tilida quyidagi qisqartmalar kuzatiladi:

비밀번호 →	비번	maxfiy parol
컴퓨터 →	컴	kompyuter
메일 →	멜	xabar
선생님 →	쌤	muallim
강력 추천 →	강추	asosli tavsiya
때문에 →	땀에	sababli
반갑습니다 →	방가	mamnunman
노재미 →	노잼	qiziqish yo‘q

빨대족 – [pal-te-cho‘k] – Bugun koreys jamiyatida 청년실업 [chong-nyon-shir-op] – yoshlarning ishsizligi sabab o‘ttiz yoshdan oshgan, ammo o‘zini moddiy jihatdan ta‘minlay olmagani uchun ota-onasining yordamiga tayanadigan yoshlar soni ortib bormoqda. 빨대족 leksemasi 빨대 [pal-te]: naycha va 족 [cho‘k]: qabila, avlod so‘zlari qo‘shilishi natijasida yasalgan bo‘lib, ota-onasining moliyaviy kuchini so‘ruvchi avlod mazmunida tushunilishi mumkin.

노머니족 – [no‘-mo-ni-cho‘k] – Koreyada yoshlarning ishsizlik darajasi yuqorilab iqtisodiy o‘sish sur‘ati pasayib borishi ta‘kidlanmoqda. Bu hodisa koreys yoshlari orasida moliyaviy ishonchsizlik va noaniq kelajakni yuzaga keltiradi. 노머니족 – xarajatlarni minimallashtirish uchun kam pul sarflaydigan ba‘zi koreys yoshlarini tasvirlash uchun yuzaga kelgan neologizm hisoblanadi.

싫존주의 [shil-cho‘n-chu-i] – koreys madaniyatida og‘zaki nutqda ba‘zida “yo‘q” ma‘nosini ifodalash uchun “ha” deyishingiz biroz g‘ayritabiiy tuyiladi. Masalan, xo‘jayin qo‘l ostidagi ishchisini o‘z uyiga mehmonga taklif qildi. Xo‘jayinning xotini mehmonga yoqmaydigan choydan bir piyola uzatdi. Yoqtirmasada, choy xush kelganini mezbonga bildirish koreyslar tabiatiga xos madaniyat hisoblanadi. Ammo bugungi o‘zlarini o‘ta zamonaviy sanovchi koreys yoshlari

nimani yoqtirish yoki yoqtirmasliklarini erkin ifoda etish tarafdoridirlar. **싫준주의** [shil-cho'n-chu-i] – **싫고 좋음** [shil-ko'-cho'-um]: yoqtiraman yoki yoqtirmayman mazmunida tarjima qilinishi mumkin.

**낙마생** – [nak-ba-seng] mazmunini quyidagi misol orqali tushunish oson: **낙마생** – 낙타가 바늘 구멍을 통과하듯 어렵게 취업한 학생 (Tarjimasi: Tuya ignaning teshigidan o'tganidek ish topishga qiynalgan talaba) ya'ni, shiddatli raqobat zamonida ishga joylashish uchun qiynalayotgan bo'lajak bitiruvchilar nazarda tutiladi. Bu yerda ish izlash jarayonida qiynchiliklarga duch kelayotgan yoshlar ignaning teshigidan o'tayotgan tuyaga qiyoslangan.

### **XULOSA**

Til uzluksiz ravishda zamon, ijtimoiy voqelik, siyosiy, madaniy, iqtisodiy muhit o'zgarishlariga mos ravishda o'zgarib turadi. Koreyada neologizmlar turli sohalarda faol qo'llanilmoqda, xususan, neologizmlarning aksariyat qismi texnika va texnologiya sohasida ko'plab uchraydi. Dunyo tillarining leksik qatlamida boshqa tillardan so'z o'zlashtirish va qisqartirish orqali vujudga kelgan neologizmlar ma'lum muddat yangi so'z sifatida tasniflanadi, ammo vaqtlar o'tib xalq tomonidan saralanganlari o'z yangiligini yo'qotib, tilning ajralmas bo'lagi sifatida asosiy leksik qatlamga singib ketadi.

### **REFERENCES**

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1966.608с.
2. Бахронова Д.К. ГЕНДЕР И ЦЕЛЕВЫЕ КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ГЕНДЕРНЫЕ СТЕРЕОТИПЫ // Гендерные исследования в гуманитарных науках: сб. ст. по матер. III междунар. науч.-практ. конф. № 3. – Новосибирск: СибАК, 2015.
3. Бахронова, Д. К. Испан ва ўзбек тилларига ўзлашган неологизмларнинг тарихий-семантик тадқиқи / Д. К. Бахронова, Н. О. Абдурахматова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. – 2021. – № 52 (394). – С. 446-449. – URL: <https://moluch.ru/archive/394/87140/>
4. Dadaboyev, K., & Bakhronova, D. (2021). The linguistic formation of defense and engineering terms in Uzbek language. *Religación. Revista De Ciencias Sociales Y Humanidades*, 6(30), e210871. <https://doi.org/10.46652/rgn.v6i30.871>
5. Xamidova, D. Koreys tilidagi o'zlashma so'zlarning etimologik va semantik xususiyatlari // ORIENSS. 2021. № Special Issue 2. URL:

---

<https://cyberleninka.ru/article/n/koreys-tilidagi-o-zlashma-so-zlarning-etimologik-vasemantik-xususiyatlari>

6. Е.А.Похолкова, Д.В.Селезнёва Неологизация в современном корейском языке — Вестник МГЛУ. Гуманитарные науки. Вып. 1 (789) /2018

<https://cyberleninka.ru/article/n/neologizatsiya-v-sovremennom-koreyskom-yazyke>

7. Jungwha Choi Interpreting Neologisms used in Korea's rapidly changing society: delivering the meaning of neologisms in simultaneous interpretation — *Meta* 51(2), 188-201. <https://id.erudit.org/iderudit/013250ar>

8. Sang-Cheol A., Egorova K. Morpho-Phonological patterns of recent Korean neologisms — Proceedings of the conference on current problems of our time: the relationship of man and society (CPT 2020) Advances in social sciences, education and humanities research, volume 531. <https://www.atlantispress.com/proceedings/cpt-20/125953248>